



HARMONY OF RELIGIOUS, AESTHETIC AND POLITICAL CONSCIOUSNESS IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF THE IDEA OF INDEPENDENCE

Dilfuza Oralbayevna Bekimbetova

Senior Lecturer at the Department of "National Ideology, Foundations of Spirituality, and Legal Education" at Nukus State Pedagogical Institutenamed after Ajiniyoz
Email: bekimbetovassss@gmail.com
Nukus, Karakalpakstan

ABOUT ARTICLE

Key words: the idea of independence, religious consciousness, aesthetic consciousness, political consciousness, youth education, spiritual and moral education, social consciousness, ideological system, national idea, concept of education.

Received: 26.01.26

Accepted: 27.01.26

Published: 28.01.26

Abstract: This article discusses the harmony of religious, aesthetic and political consciousness in the process of educating young people in the spirit of the idea of independence. The main purpose of the study is to determine the mutual influence of these three manifestations of consciousness on each other in the formation of the idea of independence in the minds of Uzbek youth and to reveal the mechanisms of their harmonious application in the educational process. During the study, existing literature, state policy documents, and practical programs were studied using content analysis, comparative analysis, and systematic approach methods. The results show that while the moral foundation is strengthened through religious consciousness, aesthetic consciousness serves the education of artistic taste, and political consciousness forms civic responsibility. This article serves the development of state policy regarding youth from a scientific point of view, and from a practical point of view can be used as a methodological guide in the educational process.

YOSHLARNI MUSTAQILLIK G‘OYASI RUHIDA TARBIYALASHDA DINIY, ESTETIK VA SIYOSIY ONGNING UYG‘UNLIGI

Dilfuza Oralbayevna Bekimbetova

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va

huquq ta'limi" kafedrasida katta o'qituvchisi
 email: bekimbetovassss@gmail.com
 Nukus, Qoraqalpog'iston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mustaqillik g'oyasi, diniy ong, estetik ong, siyosiy ong, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy ong, ideologik tizim, milliy g'oya, tarbiya konsepsiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalash jarayonida diniy, estetik va siyosiy ongning uyg'unligi muhokama qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – o'zbek yoshlari ongida mustaqillik g'oyasini shakllantirishda ushbu uch ong ko'rinishlarining bir-biriga ta'sirini aniqlash hamda ularni tarbiyaviy jarayonda uyg'un qo'llash mexanizmlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida kontent tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlari orqali mavjud adabiyotlar, davlat siyosatiga oid hujjatlar, amaliy dasturlar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, diniy ong orqali axloqiy negiz mustahkamlanar ekan, estetik ong badiiy did tarbiyasiga xizmat qiladi, siyosiy ong esa fuqarolik mas'uliyatini shakllantiradi. Ushbu maqola ilmiy nuqtai nazardan yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirishga xizmat qiladi va amaliy jihatdan esa ta'lim-tarbiya jarayonida metodik qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

ГАРМОНИЯ РЕЛИГИОЗНОГО, ЭСТЕТИЧЕСКОГО И ПОЛИТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ИДЕИ НЕЗАВИСИМОСТИ

Дильфуза Оралбаевна Бекимбетова

Старший преподаватель кафедры

«Национальная идея, основы духовности и правового образования» в НГПИ имени Ажиниёза

bekimbetovassss@gmail.com

Нукус, Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идея независимости, религиозное сознание, эстетическое сознание, политическое сознание, воспитание молодёжи, духовно-нравственное воспитание, общественное сознание, идеологическая система, национальная идея, концепция воспитания.

Аннотация: В данной статье рассматривается гармония религиозного, эстетического и политического сознания в процессе воспитания молодёжи в духе идеи независимости. Основная цель исследования – определить взаимовлияние этих трёх проявлений сознания друг на друга в формировании идеи независимости в сознании узбекской молодёжи и раскрыть механизмы их гармоничного применения в

образовательном процессе. В ходе исследования были изучены существующая литература, государственные программные документы и практические программы с использованием методов контент-анализа, сравнительного анализа и системного подхода. Результаты показывают, что если нравственная основа укрепляется через религиозное сознание, то эстетическое сознание служит воспитанию художественного вкуса, а политическое сознание формирует гражданскую ответственность. Статья служит развитию государственной политики в отношении молодёжи с научной точки зрения, а с практической может быть использована в качестве методического руководства в образовательном процессе.

Kirish. So‘nggi yillarda globallashuv, axborot texnologiyalarining tez sur‘atlarda rivojlanishi va madaniy ekspansiya tufayli yoshlar ongiga tashqi ta’sir kuchaymoqda. Shu sharoitda milliy mustaqillik g‘oyasini yoshlarga singdirish, ularni ma’naviy va ijtimoiy-ruhiy jihatdan barqaror shaxslar etib tarbiyalash dolzarb muammoga aylangan. Aynan shu jarayonda diniy, estetik va siyosiy onglar uyg‘unligining ijtimoiy rolini qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda diniy ong, estetik ong va siyosiy ong tushunchalari alohida holda ko‘plab tahlil qilingan bo‘lsa-da, ularning bir-biri bilan qanday uyg‘unlashuvi, ayniqsa yoshlar ongida mustaqillik g‘oyasi shakllanishiga qanday ta’sir qilishi masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa ushbu mavzuda nazariy bo‘shliq mavjudligini ko‘rsatadi. Xorijiy tadqiqotlarda (masalan, A. Giddens, M. Fuko, E. Fromm) siyosiy va diniy ongning shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonidagi roli yoritilgan. Mahalliy mualliflar (A. Jo‘rayev, Sh. Turdiyev, M. Mamajonov) esa mustaqillik mafkurasi, ma’naviy tarbiya va yoshlar ongidagi o‘zgarishlarga urg‘u bergan. Biroq bu yondashuvlar, asosan, bir yo‘nalishga qaratilgan bo‘lib, estetik, diniy va siyosiy onglar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ko‘p hollarda nazardan chetda qolgan. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – yoshlarning mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalanishida diniy, estetik va siyosiy onglarning qanday o‘zaro uyg‘unlashishini nazariy jihatdan tahlil qilish va ushbu uyg‘unlikni mustahkamlovchi omillarni aniqlashdan iborat. Mazkur maqola avvalgi tadqiqotlardan farqli ravishda diniy, estetik va siyosiy ongni kompleks tarzda o‘rganadi. Bu yondashuv orqali mustaqillik g‘oyasining shakllanish jarayonida ko‘p omilli (multifaktorial) model asosida yangi konseptual tushunchalar ilgari suriladi.

Diniy ong, estetik ong va siyosiy ong insonning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga va ma'naviy qadriyatlarga munosabatini belgilovchi ijtimoiy ong shakllaridir.

Diniy ong qadimdan insoniyat madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, ibtidoiy davrda miflar, totemizm va animistik tasavvurlar ko'rinishida shakllangan. Ilgari bu ong ko'proq ilohiy kuchlarga ishonch bilan bog'liq bo'lsa, hozirgi davrda u jamiyatdagi axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning markaziy elementi sifatida e'tirof etiladi.

Estetik ong esa san'at, go'zallik va ideallar orqali shakllanadigan madaniy ong shaklidir. Uning zamonaviy talqini faqat go'zallikni idrok etish emas, balki jamiyatdagi axloqiy, siyosiy va madaniy holatni estetik mezonlar orqali baholashdan iborat.

Siyosiy ong esa shaxsning jamiyatdagi siyosiy munosabatlar va hukumat tizimlariga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bu ong shakli, ayniqsa, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong va mustaqillik qadriyatlarining shakllanishi jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

P. Berger diniy ongni ijtimoiy konstruktsiya sifatida tahlil qilgan bo'lib, u diniy tushunchalar jamiyatda doimiy ravishda ijtimoiy qayta ishlab chiqilishini ta'kidlaydi. [1:19] E. Fromm diniy ongni insoniy ehtiyojlar, xavfsizlik va erkinlik o'rtasidagi murakkab munosabat sifatida talqin qilgan. [2:34] I. Kant estetik tafakkurni aqliy va hissiy tajriba sintezi sifatida talqin qilgan, unga ko'ra estetik baho sub'ektiv bo'lsa-da, umumiy asosga ega. [3:45] T. Adorno san'at orqali estetik ong jamiyatdagi hukmron ideologiyalarga qarshi turadigan kuch deb baholagan. [4:57] A. Giddens siyosiy ongni modern jamiyatda shaxsiy identitet va fuqarolik ongining shakllanishi bilan bog'laydi. [5:34] S. Huntington siyosiy ongni sivilizatsiyalar to'qnashuvi nuqtai nazaridan tahlil qilib, mafkuraviy yo'nalishlarga alohida urg'u bergan. [6:72] Xorijiy adabiyotlarda, yuqorida ta'kidlanganidek, har bir ong mustaqil tushuncha sifatida o'rganilgan. Yondashuvlar ko'proq sekulyarizatsiya, gumanizm va demokratik qadriyatlar asosida qurilgan. O'zbek olimlari, masalan, A. Jo'rayev, Sh. Turdiyev, O. Jo'raqulovlar yoshlarning ma'naviy tarbiyasida diniy-ma'rifiy ongning roliga urg'u bergan. Shu bilan birga, estetik tarbiyaning milliy meros – maqom, adabiyot, xalq san'ati asosidagi shakllanishi alohida ko'rsatilgan. Siyosiy ong esa asosan Vatanparvarlik, istiqlol mafkurasi, "Milliy g'oya" tushunchalari asosida talqin qilingan. Jo'rayev yoshlarning tarbiyasida milliy g'oya asosida diniy qadriyatlar (axloqiy-ijtimoiy tamoyillar) va siyosiy ong elementlari (fuqarolik, mustaqillik) uyg'unlashishi zarurligini ta'kidlaydi. [7:68] U diniy-axloqiy va siyosiy motivatsiyalar uyg'unlashtirilishi kontekstdagi jamiyat shaxsini tarbiyalash mexanizmi sifatida o'rganadi. Sh. Turdiyev estetik ongni siyosiy ongga kirishning (ijtimoiy-siyosiy faoliyat) bir qismi sifatida ko'rsatadi. [8:51] Shu bilan birga, estetik tarbiya milliy madaniyat va me'rosni saqlashga yo'naltirilganligini tasvirlab, madaniy-ijtimoiy uyg'unlikni ta'kidlaydi. M. Mamajonov milliy qadriyatlarni tarbiya jarayonida din, san'at va siyosat nuqtayi nazaridan ko'plab faktorlar asosida integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. [9:45] Jo'raqulov estetik tarbiyaning asosiy vazifi

san'at va milliy meros orqali shaxsda o'zlik identifikatsiyasini shakllantirish ekanligini yozadi. [10:23] Shu bilan birga, bu estetik sintez siyosiy ongga – jamiyatga nisbatan mas'uliyat, vatanparvarlik tuyg'ulariga ruju qo'yilshiga xizmat qiladi.

Klassik yondashuvlarda onglar odatda mustaqil tushunchalar sifatida tahlil qilingan. Masalan, diniy ong – ibodat va e'tiqod asosida, estetik ong – san'at va go'zallik mezonlari asosida, siyosiy ong esa hukumatga munosabat bilan cheklangan. Zamonaviy yondashuvlar esa bu onglar o'zaro bog'liq va sinergik tizim sifatida qaraladi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida bu onglar mustaqil emas, balki integrallashgan holda qaralmoqda: diniy qadriyatlar estetik ifodada va siyosiy ong bilan uyg'unlashgan holda yuzaga chiqadi. Bugungi globallashuv sharoitida mustaqillik g'oyasining mazmuni nafaqat siyosiy mustaqillik bilan bog'liq, balki yosh avlod tafakkurida diniy, estetik va siyosiy ong uyg'unligining shakllanishi orqali hayotga tadbiiq etilmoqda. "Mustaqillik g'oyasi" deganda, o'zlikni anglash, ijtimoiy qadriyatlarni ongli qabul qilish, ijtimoiy faol bo'lish va o'z milliy manfaatlarini ilgari sura olish qobiliyatlari tushuniladi. Bu tushuncha zamonaviy pedagogik, ijtimoiy-falsafiy va madaniy yondashuvlarda turlicha talqin etiladi. Ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, bu g'oya yoshlar tarbiyasining poydevori sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada interdisiplinar (kesishgan fanlararo) yondashuv asosida masalaga yondashiladi. An'anaviy yondashuvlarda mustaqillik g'oyasi ko'proq siyosiy-huquqiy kontekstda tahlil qilingan bo'lsa, g'oyaning shaxs ongida shakllanish mexanizmi diniy ma'rifat, estetik did va siyosiy tafakkur birligi orqali tahlil qilingan. Shu tariqa, "mustaqillik g'oyasi"ga uch yo'nalish – diniy, estetik va siyosiy ong integratsiyasi orqali yondashiladi. Bu esa mavzuni yanada chuqurroq falsafiy, ma'naviy va amaliy nuqtai nazardan ochib berishga yordam beradi.

Maqolada taklif etilayotgan nazariy modelga ko'ra, mustaqillik g'oyasining shakllanish jarayoni quyidagi uch bosqichli mexanizm asosida izohlanadi:

- Diniy ong bosqichi – bu bosqichda shaxsda axloqiy me'yorlar, halollik, sabr, iymon-e'tiqod singari asosiy qadriyatlar shakllanadi. Din, bu yerda, axloqiy ongni uyg'otuvchi manba sifatida talqin qilinadi.

- Estetik ong bosqichi – bu bosqichda yoshlar san'at, adabiyot, madaniyat orqali o'z fikrini obrazli ifodalashga, go'zallikni anglashga va milliy identitetni estetik qabul qilishga o'rganadi.

- Siyosiy ong bosqichi – bu bosqichda shaxsda fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faollik, tanqidiy tafakkur va davlat mustaqilligiga mas'uliyat bilan yondashish hissi paydo bo'ladi.

Shunday qilib, bu uch yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'langan holda shaxsning ichki dunyosida mustaqillik g'oyasi ruhini shakllantiradi.

Yoshlarni mustaqillik g'oyasi asosida tarbiyalash masalasida turli nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri mazkur jarayonga o'ziga xos nuqtai nazardan yondashadi. Masalan, klassik pedagogik yondashuvlar bu jarayonni faqat bilim va intizom asosida izohlaydi.

Unga ko'ra, yoshlar milliy qadriyatlarni faqat darsliklar orqali o'rganadi va ularga bo'ysunadi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar esa mustaqillik g'oyasini faqat siyosiy ong emas, balki shaxsiy ongning murakkab shakli sifatida talqin etadi. Bu yondashuvlarda yoshlar o'z-o'zini anglaydigan, o'z g'oyasiga ega bo'lgan faol subyekt sifatida tasvirlanadi.

Yoshlar orasida mustaqillik g'oyasini chuqur shakllantirish uchun faqatgina siyosiy bilimlar yetarli emas. Aksincha, bu g'oya yoshlar ongida diniy ong orqali axloqiy asoslar bilan, estetik ong orqali go'zallik va milliy identitet bilan, siyosiy ong orqali esa fuqarolik mas'uliyati bilan uyg'unlashgandagina barqaror shaklga ega bo'ladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqillik g'oyasi yoshlar hayotida faqat nazariy tushuncha emas, balki ijtimoiy-hayotiy amaliyotdir. Ular bu g'oyani dars jarayonida emas, balki madaniy tadbirlarda, diniy-ma'rifiy suhbatlarda, oila muhitida va ommaviy axborot vositalari orqali qabul qilmoqda. Bu esa bizni yangi pedagogik va axborot strategiyalarini ishlab chiqishga undaydi.

Global kontekstda, ayniqsa G'arb jamiyatlarida mustaqillik g'oyasi shaxsiy erkinlik bilan bog'liq bo'lsa, O'zbekistonda u ijtimoiy mas'uliyat, tarixiy xotira va jamiyat bilan uyg'un hayot tarzini anglatadi. Milliy madaniyatda bu g'oya oilaparvarlik, diyonat, qadriyatlarga sadoqat orqali ifodalanadi. Shuning uchun, tadqiqot ushbu g'oyaning mahalliy talqinini tizimli asosda ochib berish orqali global yondashuvlarga muqobil model sifatida qaralishi mumkinligini ilgari suradi.

Maqola davomida olib borilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, yoshlarni mustaqillik g'oyasi asosida tarbiyalash jarayoni ko'p omilli, murakkab va o'zaro bog'liq ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, uni faqat siyosiy yoki diniy ong doirasidagina tushuntirish yetarli emas. Aksincha, mustaqillik g'oyasining yoshlar ongida mukammal shakllanishi uchun diniy, estetik va siyosiy onglar o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritishi zarur. Maqolada ilgari surilgan asosiy yondashuv – bu integrallashgan, ijtimoiy-madaniy kontekstdan kelib chiqqan falsafiy yondashuv bo'lib, u orqali mustaqillik g'oyasi nafaqat tarixiy xotira yoki siyosiy mafkura sifatida, balki shaxsiy identitet, go'zallik hissi va axloqiy-ruhiy barqarorlikni ta'minlovchi hodisa sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv yoshlarning individual tafakkurini, estetik didini, ijtimoiy mas'uliyatini va vatanparvarligini uyg'un ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-amaliy nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalarni beradi:

- Ta'lim dasturlarida mustaqillik g'oyasini diniy, estetik va siyosiy onglar bilan bog'lab talqin etish uchun integratsiyalashgan o'quv modullarini ishlab chiqish;
- Ommaviy axborot vositalari va madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali yoshlar ongiga go'zallik va qadriyatlar asosidagi mustaqillik g'oyasini singdirish;
- Pedagoglar va murabbiylar uchun ijtimoiy-axloqiy ongni uyg'otuvchi metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish;

• Estetik tarbiya vositalari – san’at, teatr, musiqiy asarlar orqali milliy ongning chuqurlashtirish.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

- Mustaqillik g‘oyasining virtual makon va ijtimoiy tarmoqlarda shakllanishi;
- Estetik ong orqali milliy qadriyatlarni ijtimoiy psixologik tahlil qilish;
- Diniy va siyosiy onglar o‘rtasidagi muvozanatni komparativ madaniyatshunoslik asosida o‘rganish;
- Yoshlar orasida g‘oyaviy immunitetni shakllantirishda madaniy-madaniy mediatorlarning roli (masalan, ziyolilar, san’atkorlar, imomlar)ni o‘rganish.

Xulosa qilib aytganda, maqola yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashda nazariy yondashuvlar xilma-xilligini ko‘rsatibgina qolmay, balki o‘ziga xos ko‘p qirrali, uyg‘unlikka asoslangan konseptual modelni taklif qiladi, bu esa ijtimoiy barqarorlik va milliy ong rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Berger P. L. The Sacred Canopy: Elements of a Sociological Theory of Religion. – New York: Anchor Books, 1990. – P. 217.
2. Fromm E. The Fear of Freedom. – London: Routledge & Kegan Paul, 1942. – P. 254.
3. Kant I. Critique of Judgment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – P. 398.
4. Adorno T. W. Aesthetic Theory. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1997. – P. 361.
5. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – P. 264.
6. Huntington S. P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996. – P. 368.
7. Jo‘rayev A. Milliy g‘oya – yoshlar tarbiyasining negizi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B. 184.
8. Turdiyev Sh. Mustaqillik mafkurasi va yoshlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B. 192.
9. Mamajonov M. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. // Ma‘naviyat. – 2015. – №2. – B. 43–48.
10. Jo‘raqulov O. Estetik tarbiyaning milliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 134.